

FOND BOZORIDA MA'LUMOTLARNI O'Z VAQTIDA VA TO'LIQ OSHKOR ETILISHINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

Xo'jamurodov Asqarjon Jalolovich

Toshkent kimyo-texnologiya
instituti kafedra mudiri

khujamurodovaskarjon@gmail.com

Davronov Xusan Zokir o'g'li

TDIU magistri
davronov.h@bk.ru

Maxmutaliyev Sunnatilla Muhammadali o'gli

TDIU magistri
sunnatilla0757@icloud.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada fond bozorida aksiyadorlar va investorlar ishtiroki uchun zarur bo'lgan ma'lumot va axborotlarni aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan o'z vaqtida va to'liq oshkor etib borish shartlari, talablari hamda muddatlari keltirib o'tilgan. Kapital bozorida axborotlarni o'z vaqtida va to'liq oshkor etishning bir nechta yo'nalishlari, uning mamlakatimizda Kapital bozorini rivojlantirish dasturini amalga oshirishga mos kelishi keltirib o'tilgan. Investorni fond bozoriga jalb qilishning eng asosiy mezonlari jamiyat moliyaviy faoliyati va aksiyalari haqidagi axborotlar ekanligi yoritilgan.

***Kalit so'zlar:** fond bozori, aksiya, axborot, kapital bozori, aksiyadorlik jamiyati, fond birjasi, investor, listing, qimmatli qog'ozlar.*

GUIDELINES FOR ENSURING TIMELY AND COMPLETE DISCLOSURE IN THE STOCK MARKET

ABSTRACT

In this article, the conditions, requirements and deadlines for timely and complete disclosure of information and information necessary for the participation of shareholders and investors in the stock market by joint-stock companies are mentioned. Several directions of timely and complete disclosure of information in the capital market, its compatibility with the implementation of the capital market development

program in our country, were mentioned. It is explained that the main criterion for attracting investors to the stock market is information about the company's financial activities and shares.

Key words: stock market, share, information, capital market, joint stock company, stock exchange, investor, listing, securities.

KIRISH

Jahon amaliyotidan ma'lumki, kapital bozori iqtisodiyotni uzoq muddatli moliyaviy resurslar bilan ta'minlashning o'ziga xos vositasi, makroiqtisodiy siyosatning asosiy elementi hamda mamlakat iqtisodiyoti barqarorligini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Shu bois mamlakatimizda kapital bozori sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirish, kapital bozorining milliy iqtisodiyotdagi rolini oshirish va uning salohiyatidan samarali foydalanish, pirovardida milliy iqtisodiyotni yanada rivojlantirish borasida yangi qadam qo'yildi.

Chunonchi, 2021 yil 13 aprelda "Kapital bozorini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori qabul qilinib, unga muvofiq Kapital bozorini rivojlantirish agentligi tugatildi, uning barcha vazifa, funktsiya va vakolatlari Moliya vazirligiga o'tkazildi. Shuningdek, farmonga muvofiq kapital bozorini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Fond bozorining moliyalashtirish, ular faoliyatini tahlil qilish, baholash, tartibga solish va nazorat qilishning ilmiy-nazariy jihatlari ko'plab xorijlik olimlarning tadqiqot yo'nalishidir. Bu borada Breyli Richard va Mayers Styuartlar korporativ moliya tamoyillarining o'ziga xos xususiyatlarini ajratib berib, moliyaviy instrumentlarga mualliflik yondashuvini ishlab chiqishgan [1]. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlari Kilyachkov A.A., Chaldaeveva L.A. [2] va Mirkin Ya.M. lar tomonidan qimmatli qog'ozlar bozoriga ta'sir etuvchi fundamental omillarni aniqlagan [3]. Biroq, sanab o'tilgan tadqiqotchilarning iqtisodiyot faniga qo'shgan salmoqli hissasiga qaramay, qimmatli qog'ozlar va fond bozorida axborotlarni oshkor etib borishning nazariy va amaliy jihatlari, hamda uning infratuzilmasini rivojlantirish masalalarining o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinmagan. Mazkur olimlarning ilmiy ishlarida fond bozori ishtirokchilari va tashkilotchilari faoliyati infratuzilmaviy muassasa sifatida o'rganilmagan. AQSh Pensilvaniya universiteti Wharton School moliya kafedrasini mudiri Itay Goldstein va Kanada University of Toronto Rotman School of Management maktabi moliya kafedrasini professori Liyan Yangning "Information Disclosure in Financial Markets" nomli maqolasida keltirilgan tahlil moliyaviy bozorlarda axborotning oshkor etilishi bozor sifatiga, axborot ishlab

chiqarishiga, real samaradorlikka qanday ta'sir qilishi haqidagi adabiyotlardan asosiy tushunchalarni ko'rsatadi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, baholashda ko'p jihatlarni hisobga olish kerak. Oshkor qilishning ta'siri va oshkor qilish darajasi va shaklini optimal tartibga solish moliyaviy bozorlarda savdo va axborotni tushunishda foydali ekanligini isbotladi. Oshkor qilish kabi regulyatorlar tomonidan bozor sifatini oshirish vositasi sifatida tobora ko'proq foydalanilayotganligi sababli, uning turli xil oqibatlarini hisobga olish muhimligini tadqiq qilgan. [4]

Fond bozori uning rivojlantirish yo'llari, qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini takomillashtirishning umumiy jihatlari Igor Leonidovich Butikov tomonidan O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish muammolari tadqiq etilgan bo'lsa, Mixail Borisovich Xamidulin korporativ boshqaruvning moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy ishlarni amalga oshirgan, va boshqa olimlarning [5, 6] ilmiy tadqiqot ishlarida ko'rsatib berilgan.

Mahalliy olim Shoha'zamiy Sh.Sh. esa O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorini strategik rivojlantirishning metodologik asoslari takomillashtirilgan [7].

O'zbekiston fond bozorini rivojlanmaganligiga ta'sir etuvchi davlat organlarining aralashuvi, yirik aksiya paketlariga davlat egalik qilishi, aholining qimmatli qog'ozlar va undan daromad olish mumkinligi haqida yetarlicha tasavvurga ega emasligi, infratuzilma obligatsiyalarining muomalada yo'qligi, qimmatli qog'ozlardan daromad olishni ta'minlovchi va kafolat beruvchi infratuzilma sub'ektlarining rivojlanmaganligi kabi muammolar yetarlicha tadqiq etilmagan.

Shu bilan birga, hozirgi O'zbekistonning iqtisodiyotini modernizatsiya qilish jarayonida fond bozori infratuzilmasini takomillashtirishda fond bozorida axborotlarni o'z vaqtida va to'liq oshkor etilmasligi, bozorini rivojlantirishda infratuzilma faoliyatini samaradorligini oshirish, davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish, axborot infratuzilmasini yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi yetarlicha tadqiq etilmagan. Shu kabi muammolar mazkur tadqiqot ishi mavzusining tanlanishiga sabab bo'ldi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzu yuzasidan olib borilgan taqiqotlar davomida analiz va sentiz, abstraksiya va mushohadalash, taqqoslama tahlil va statistik tahlillarning boshqa usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR

2021-2023 yillarda kapital bozorini rivojlantirish dasturida bu boradagi ishlarni etti asosiy yo'nalishda amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Birinchi asosiy yo‘nalishda emitentlar sonini ko‘paytirish, yangi moliyaviy mahsulotlar va korporativ boshqaruvni takomillashtirish, bu boradagi mavjud muammolarni bartaraf etish uchun xalqaro moliyaviy vositalar (Exchange traded funds, Gold ETF)ni joriy etish, islom moliyalashtirish tamoyillari asosida qimmatli qog‘ozlar va kapital bozoriga oid boshqa moliya xizmatlarini tatbiq etish, barcha aksiyadorlik jamiyatlarida Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT) korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy qilish va ushbu tamoyillarning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish, korporativ obligatsiyalar bozorini rivojlantirish, davlat ulushiga ega bo‘lgan korxonalarini mahalliy fond birjasida ommaviy taklif orqali xususiylashtirishni rag‘batlantirish kabi chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan.

Ikkinchi asosiy yo‘nalish kapital bozori infratuzilmasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Unda Korporativ axborot yagona portali va «Toshkent» Respublika fond birjasi veb-saytining tegishli bo‘limlari bazasida listing kompaniyalari va aksiyadorlari tomonidan axborotni oshkor qilish bo‘yicha korporativ va bozor ma‘lumotlarini oshkor qilishning yagona platformasini yaratish, «Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi» DUKga Markaziy bankda hisobvaraqlar ochgan holda hisob-kitoblarni amalga oshirish, «Toshkent» Respublika fond birjasining rasmiy veb-saytida barcha investorlar uchun ochiq bo‘lgan emitent nomi, aksiya turi, imtiyozli aksiya uchun to‘lanadigan foiz, dividend miqdori va uni to‘lash sanasini o‘z ichiga oluvchi ma‘lumotlar bazasining elektron tablosini yaratish, «Toshkent» Respublika fond birjasining moddiy-texnik bazasini kuchaytirish va tashkiliy tuzilmasini qayta ko‘rib chiqish yo‘li bilan uning investitsion jozibadorligini oshirish, qimmatli qog‘ozlarni saqlash, hisobini yuritish hamda boshqa depozitar operatsiyalarini rivojlantirish imkoniyatini yaratish kabi chora-tadbirlar ko‘rish belgilangan.

Uchinchi asosiy yo‘nalish doirasida kapital bozorida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish ko‘zlangan bo‘lib, unda fond birjasidagi Yagona dasturiy texnik kompleks (YADTK) faoliyatining uzluksizligini ta‘minlash, rivojlantirish hamda uning zaxira markazini tashkil etish, fond bozorida bitimlarni onlayn tartibda amalga oshirish imkonini beruvchi mobil ilovalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish, investitsiya vositachilari bilan shartnoma tuzish paytida ularning shaxsiy ma‘lumotlarini olish maqsadida «O‘z mijozingni bil» (Know your client) va «Daromadni legallashtirishga qarshi kurashish» (Anti Money Laundering) tizimlariga muvofiq mijozlarni tekshirish usullarini joriy qilish, Qimmatli qog‘ozlarning markaziy depozitariysi tomonidan Milliy raqamlash agentligi funksiyasini bajarish va xalqaro ISO standartlarini joriy qilish kabi vazifalar belgilangan. [8].

To'rtinchi asosiy yo'nalish kapital bozorini huquqiy tartibga solish va nazorat qilish masalalarini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, unda Qimmatli qog'ozlar komissiyalari xalqaro tashkiloti (IOSCO) tamoyillari asosida sohaga oid to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi, jumladan, «Kapital bozori to'g'risida»gi qonun loyihacini ishlab chiqish, Moliya vazirligi va Qimmatli qog'ozlar komissiyalari xalqaro tashkiloti (IOSCO) o'rtasida maslahatlashuvlar, hamkorlik va axborot almashinuvi bo'yicha ko'p tomonlama anglashuv Memorandumini imzolash choralari ko'rish, investitsiya jamg'armalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va amaldagi qonunchilikka xolding korxonalari faoliyatini tartibga solish bo'yicha tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, barcha ehtimoliy xatarlar hamda mamlakat moliya bozorining rivojlanish darajasini hisobga olgan holda kapital harakatini samarali tartibga solish mexanizmini joriy etish, savdo, kliring va hisob-kitob qoidalari, shuningdek, investitsion maslahatchi va vositachilar uchun qoidalarni takomillashtirish muhim vazifalar qatoridan o'rin olgan.

Beshinchi asosiy yo'nalish doirasida investorlar bazasini kengaytirish va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish mo'ljallangan bo'lib, unga muvofiq yuridik shaxslar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan depo hisobvaraqlarini masofadan turib ochish va aksiyalarning birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO) ommaviy takliflariga ariza berish, davlat va korporativ obligatsiyalar hamda boshqa qimmatli qog'ozlarni sotib olish uchun buyurtma berish tartibini belgilash, O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan mahalliy emitentlarning qimmatli qog'ozlarini sotib olish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish, kapital bozorida sug'urta kompaniyalarining ishtirokini rag'batlantirish, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda investitsiya fondlarini tashkil etish, kapital bozori sohasiga oid masalalar bo'yicha aholining moliyaviy savodxonligini oshirish dasturlarini amalga oshirishda barqaror mexanizmlarni joriy etish kabi vazifalar belgilangan.

Oltinchi asosiy yo'nalishda davlat qimmatli qog'ozlari bozorini rivojlantirish maqsad qilib qo'yilgan bo'lib, unga erishish uchun O'zbekiston Respublikasi norezidentlari va rezidentlari tomonidan davlat qimmatli qog'ozlarini sotib olish imkoniyatini kengaytirish, shuningdek, market-meyker institutini joriy etish, davlat qimmatli qog'ozlarining ikkilamchi bozorini rivojlantirish, jumladan, inflyasiyaga bog'langan davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarish amaliyotini yo'lga qo'yish, davlat qimmatli qog'ozlari bozorini xalqaro standartlarga moslashtirish, bu borada shaffoflikni ta'minlash va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash mo'ljallangan.

Ettinchi asosiy yo'nalish kapital bozori ishtirokchilarining malakasini oshirish, ularni o'qitish va qayta o'qitish tizimini yaratishga yo'naltirilgan bo'lib, uning

doirasida kapital bozorini tartibga solish sohasida bilim va ko'nikmalarga o'rgatishga qaratilgan kadrlar tayyorlashning kompleks tizimini yaratish, nufuzli xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda o'quv dasturlarini ishlab chiqish, kadrlar salohiyatini oshirish bo'yicha institutsional baza yaratish, Moliya vazirligi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va kapital bozori rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ularning malakasini oshirish choralari ko'rish, Moliya vazirligiga yuqori malakali, shu jumladan, xorijiy mamlakatlarning qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi idoralari ish tajribasiga ega bo'lgan mutaxassislarni jalb etish kabi choralarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Mamlakatimizda Kapital bozorini rivojlantirish dasturini amalga oshirish natijasida 2023 yilga qadar erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlarga asoslangan bozor kapitallashuvi darajasini 45 trillion so'mga etkazish (2020 yilda 1,9 trillion so'm bo'lgan), erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlarning umumiy hajmini YAIMning kamida 5 foizigacha oshirish (2020 yilda 0,3 foizni tashkil etgan), korporativ obligatsiyalarning umumiy qiymatini 3,94 trillion so'mga ko'tarish (2020 yilda 0,16 trillion so'mni tashkil etgan), ularning YAIMga nisbatan ulushini amaldagi 0,03 foizdan 0,5 foizga oshirish kutilmoqda.

MUHOKAMA

Xulosa qiladigan bo'lsak 2021-2023 yillarda kapital bozorini rivojlantirish dasturida bu boradagi ishlarni etti asosiy yo'nalishda amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Birinchi asosiy yo'nalishda emitentlar sonini ko'paytirish, yangi moliyaviy mahsulotlar va korporativ boshqaruvni takomillashtirish, bu boradagi mavjud muammolarni bartaraf etish uchun xalqaro moliyaviy vositalar ni joriy etish, islom moliyalashtirish tamoyillari asosida qimmatli qog'ozlar va kapital bozoriga oid boshqa moliya xizmatlarini tatbiq etish.

Ikkinchi asosiy yo'nalish kapital bozori infratuzilmasini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Unda Korporativ axborot yagona portali va «Toshkent» Respublika fond birjasi veb-saytining tegishli bo'limlari bazasida listing kompaniyalari va aksiyadorlari tomonidan axborotni oshkor qilish bo'yicha korporativ va bozor ma'lumotlarini oshkor qilishning yagona platformasini yaratish.

Uchinchi asosiy yo'nalish doirasida kapital bozorida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish ko'zlangan bo'lib, unda fond birjasidagi Yagona dasturiy texnik kompleks (YADTK) faoliyatining uzluksizligini ta'minlash.

To'rtinchi asosiy yo'nalish kapital bozorini huquqiy tartibga solish va nazorat qilish masalalarini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, unda Qimmatli qog'ozlar komissiyalari xalqaro tashkiloti (IOSCO) tamoyillari asosida sohaga oid to'g'ridan-

to'g'ri amal qiluvchi, jumladan, «Kapital bozori to'g'risida»gi qonun loyihacini ishlab chiqish.

Beshinchi asosiy yo'nalish doirasida investorlar bazasini kengaytirish va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish mo'ljallangan bo'lib, unga muvofiq yuridik shaxslar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan depo hisobvaraqlarini masofadan turib ochish va aksiyalarning birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO) ommaviy takliflariga ariza berish.

Oltinchi asosiy yo'nalishda davlat qimmatli qog'ozlari bozorini rivojlantirish maqsad qilib qo'yilgan bo'lib, unga erishish uchun O'zbekiston Respublikasi norezidentlari va rezidentlari tomonidan davlat qimmatli qog'ozlarini sotib olish imkoniyatini kengaytirish, shuningdek, market-meyker institutini joriy etish, davlat qimmatli qog'ozlarining ikkilamchi bozorini rivojlantirish.

Ettinchi asosiy yo'nalish kapital bozori ishtirokchilarining malakasini oshirish, ularni o'qitish va qayta o'qitish tizimini yaratishga yo'naltirilgan bo'lib, uning doirasida kapital bozorini tartibga solish sohasida bilim va ko'nikmalarga o'rgatishga qaratilgan kadrlar tayyorlashning kompleks tizimini yaratish, nufuzli xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda o'quv dasturlarini ishlab chiqish, kadrlar salohiyatini oshirish bo'yicha institutsional baza yaratish.

Mamlakatimizda Kapital bozorini rivojlantirish dasturini amalga oshirish natijasida 2023 yilga qadar erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlarga asoslangan bozor kapitallashuvi darajasini 45 trillion so'mga etkazish masalalari belgilab olingan.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari bo'yicha kapital bozorida aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan ma'lumotlar o'z vaqtida va to'liq oshkor etilishi, ma'lumotlarning aniq va ishonchliligi, oshkor etish usullari va mexanizmlarini takamillashtirish yuzasidan bir qator xulosa va takliflarni shakllantirishga mavaffaq bo'ldik.

1. Kapital bozorida to'liq va ishonchli axborot investorlar qaror qabul qilishi uchun eng muhimligi ayondir. Axborot o'z vaqtida oshkor etilishi va undan bozorning barcha ishtirokchilari teng sharoitda foydalanishi imkoniyatining mavjudligini, eng asosiysi, Qoidalarga rioya qilinmaganda barchaga jazo muqarrarligini ta'minlash maqsadida rivojlanishning hozirgi bosqichida Qoidalar Hukumat qarori bilan tasdiqlanishini taklif etamiz.

2. Korporativ axborot yagona portali, rasmiy axborot manbai ekanligini inobatga olgan holda, unga nisbatan asosiy talablarni, shu jumladan e'lon qilingan axborotni olib tashlash (o'chirish) va o'zgartirish mumkin bo'lgan holatlarni Qoidalarda aks ettirish hamda Portal moderator huquqi va majburiyatlarini sanab o'tish maqsadga

muvofiq. Eng asosiysi, mazkur Portal moderatori faoliyatida manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish uchun u mustaqil shaxs bo'lishi lozim.

3. Qimmatli qog'ozlar, shu jumladan aksiyalarga, egalik qilishda axborotni e'lon qilish talabi qimmatli qog'ozlar soni (miqdori) foizdan kelib chiqib belgilashda noaniqlik mavjud. Masalan, Qoidalarining 21 va 22 bandlarida "35 yoki undan ortiq foiz" va "20 va undan ortiq foiz" iborasi qo'llanilgan, Qoidalar 22-bandining yangi tahririda "50 va undan ortiq foiz" iborasi qo'shilmoqda. Egallikda qimmatli qog'ozlar soni qisqa muddat ichida bir necha bor oshgan va tushgan sharoitda ularning egasi axborotni e'lon qilish imkoniyati mavjud bo'lmasligi mumkin. Bunday holatda qimmatli qog'ozlar miqdorining o'zgarishi foiz jihatdan sezilarsiz ham bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra, Qoidalarining 21 va 22 bandlarida mazkur muammoni bartaraf etish uchun aniq normalar kiritish taklif etidadi.

4. Aksiya va obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qarorlar jamiyatlar kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinish holatlari ko'payib bormoqda. Bunday qarorlar haqida investorlar va boshqa bozor ishtirokchilari ko'p vaqt o'tib qimmatli qog'ozlar chiqarilishi ro'yxatdan o'tgandagina xabar topmoqda, insayderlar esa bundan foydalanib qolishiga sharoit yaratilmoqda. Shunga ko'ra, Qoidalarining 3 - ilovasidagi Ro'yxatni "qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risida qabul qilingan qarorlar" nomi bilan qo'shimcha muhim fakt kiritish va uning shaklini qo'shimcha ilovada keltirish maqsadga muvofiq.

5. Emitentlar 6-muhim faktni oshkor qilayotganda emitentning yuqori boshqaruv organi tomonidan ayrim muhim qarorlar ilovalarga muvofiq qabul qilingan deb aks ettirish, va bu ilovalarni esa Portalga, rasmiy veb-caytlariga yuklamaslik holatlar ko'paymoqda. Natijada investorlar g'afatda qolmoqda, insayderlar uchun esa sharoit yaratilmoqda. SHunga ko'ra, barcha muhim faktlarda, ayniqsa 6-muhim faktda ilovalarni yuklash majburiyiligini Qoidalarda aks ettirish va shunday texnik imkoniyat Portalda bo'lishini ta'minlash lozim.

"Qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari tomonidan axborot taqdim etish va e'lon qilish qoidalariga"ga o'zgartirish va qo'shimchalar loyihasini o'rganib chiqib, biz yuqorida tavsiya qilgan takliflarimiz bilan to'ldirish kapital bozorida ma'lumotlarni o'z vaqtida va to'liq oshkor etilishi usullari va mexanizmlarini har jihatdan takomillashishiga va aksiyadorlar huquqlari himoyalaniishining yo'qori darajaga ko'tarilishiga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Брейли Ричард, Майерс Стюарт Принципы корпоративных финансов: Пер. с англ. – М.: Олимп-бизнес, 2004;
2. Килячков А.А., Чалдаева Л.А. Рынок ценных бумаг и биржевое дело. – М.: Юрист, 2005.- 687 с.;
3. Миркин Я.М. Рынок ценных бумаг России: воздействие фундаментальных факторов, прогноз и политика развития. -М.: Альпина Паблишер, 2002.-578 с.
4. Itay Goldstein and Liyan Yang (2017). Information Disclosure in Financial Markets Vol. 9:101-125 (Volume publication date November 2017) First published online as a Review in Advance on July 11, 2017 <https://doi.org/10.1146/annurev-financial-110716-032355>
5. Хамидулин М.Б Развитие финансового механизма корпоративного управления, Автореферат дисс...доктора. экон. наук.-Ташкент, БФА, 2009.
6. Бутиков И.Л. Проблемы формирования и функционирования рынка ценных бумаг в Узбекистане, Автореферат дисс...доктора. экон. наук.-Ташкент, БФА, 2009.
7. Шоҳаъзамий Ш.Ш. Методологические основы и приоритеты стратегического развития рынка ценных бумаг в Узбекистане, Автореферат дисс...доктора. экон. наук.- Ташкент, БФА, 2011.
8. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tiziminitakomillashtirish bo‘yicha komissiyaning 31.12.2015 yildagi majlisi (bayonnoma №02-02/1-187, 11.02.2016y.) asosan tasdiqlangan Korporativ boshqaruv kodeksi.
9. Khujamurodov, A. (2020). Development and formation of the securities market in Russia. Архив научных исследований, 35.